



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026

ANTROPONIMLARNI TAHLIL QILISHDA LINGVOKOGNITIV YONDASHUV A LINGUOCOGNITIVE APPROACH TO ANALYZING ANTHROPONYMS

Davronova Zarnigor Jabbor qizi

Tayanch Doktorant (Phd)

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: dzarnigor93@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-8249-5788>

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./XPYJ4387](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./XPYJ4387)

Annotatsiya. Mazkur maqolada antroponimlarni tahlil qilishda kognitiv yondashuvning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Kognitiv tilshunoslikda antroponimlarining konseptual tuzilmasi, semantik-funksional tomondan tahlil qilinadi. O'zbek antroponimlari misolida ismlarning konseptual metaforalari, prototipik xususiyatlari hamda mental xaritada o'rni freym metodi asosida yoritib beriladi. Maqolada antroponimlarning inson tafakkuri va milliy madaniyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini faqat strukturaviy yoki etimologik jihatdan emas, balki inson tafakkuri va idroki bilan bog'liq holda o'rganish dolzarb masalaga aylangan. Shu nuqtai nazardan, antroponimlarni kognitiv yondashuv asosida tahlil qilish shaxs ismlarining mazmuniy, madaniy va psixologik qatlamlarini ochib berishga imkon yaratadi. Antroponimlar nafaqat nominativ birlik, balki jamiyatning konseptual dunyoqarashini aks ettiruvchi lingvomadaniy hodisadir. Kognitiv yondashuv antroponimlarning mental xususiyatlarini, konseptual tuzilishini va semantik assotsiatsiyalarini aniqlashda samarali metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: antroponim, kognitiv tilshunoslik, konsept, konseptual metafora, semantik tarmoq, tafakkur, freym.

Annotation. This article elucidates the theoretical and practical foundations of the cognitive approach in analyzing anthroponyms. In cognitive linguistics, the conceptual structure of anthroponyms is examined from a semantic-functional perspective. Using Uzbek anthroponyms as examples, the article illustrates conceptual metaphors of names, their prototypical features, and their position on the mental map based on the frame method. The study demonstrates the intrinsic connection between anthroponyms and human cognition as well as national culture. In modern linguistics, examining language units not only in terms of structure or etymology but also in relation to human thought and perception has become a crucial issue. From this standpoint,



analyzing anthroponyms through a cognitive approach enables the revelation of semantic, cultural, and psychological layers of personal names. Anthroponyms are not merely nominative units but also linguocultural phenomena reflecting society's conceptual worldview. The cognitive approach serves as an effective methodological basis for identifying the mental characteristics, conceptual structure, and semantic associations of anthroponyms.

Keywords: *anthroponym, cognitive linguistics, concept, conceptual metaphor, semantic network, cognition, frame.*

Antroponimik birliklarga kishilarning ismlari, familiyalari, taxalluslar, laqablar v b. iborat bo‘lib, til hamda madaniyatda noyob semantik-kognitiv hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Antroponimlarni tahlil qilish an‘anaviy etimologik va struktural yondashuvlardan tashqari, kognitiv yondashuvlar orqali ularning inson tafakkuri, konseptual tuzilma, metaforik strukturalar va ma‘naviy-madaniy qadriyat bilan bog‘liqligini ochib berishga xizmat qiladi. Kognitiv yondashuv tilshunoslikda tilning mental xaritasi, konseptlararo bog‘lanishlar va semantik strukturani o‘rganadi. Antroponimlarni kognitiv tahlil esa, shaxs ismlari va ularning ma‘nolari insonning bilim tuzilmasi, qadriyat tizimi va tajribasi bilan qanday bog‘liq ekanini aniqlaydi.

Kognitivistlarning asosiy tadqiqot obyekti ma‘nodir. Kognitiv tilshunoslar bir vaqtning o‘zida semantika va grammatika bilan shug‘ullanadilar. Kognitiv tilshunoslik doirasida ishlab chiqilgan kognitiv semantika alohida tadqiqotchilarning qarashlariga qarab ichki jihatdan farqlanadi. Kognitiv tilshunoslikning bir qismi bo‘lgan kognitiv semantikaning asosiy tamoyillariga e‘tibor qaratgan Jorj Lakoff, Vyvyan Evans, Andrea Tayler va boshqalar. Asosiy kognitiv mulohazalardan kelib chiqadigan kognitiv semantikani antroponimlarni tahlil qilishda qo‘llashni taklif etadilar [Lakoff., Johnson., 2003: 275].

Kognitiv grammatika tushunchasida ma‘no hosil qilish jarayonlarida bilimning asosiy birligi konsept, ya‘ni tildan foydalanuvchining ongida saqlanib qolgan psixologik va aqliy bilimdir. Tushunchalarning yadrolari ilk bolalik davrida yaratiladi va tajriba ta‘sirida doimo o‘zgarib turadi. Semantik struktura esa til vositasida ifodalangan konseptual strukturaning in‘ikosidir. Til bevosita real dunyoga mansub predmetlarga emas, balki tildan foydalanuvchilar ongidagi tushunchalarga ishora qiladi. Bu shuni anglatadiki, semantik tuzilma (ya‘ni til birliklari bilan bog‘liq ma‘no) konseptual tuzilma (ya‘ni konseptlar) bilan bir xil bo‘ladi. Ma‘no hosil qilish jarayonlari til ishtirokida amalga oshiriladi va konsept lisoniy belgi bilan ifodalanadi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, ma‘nosiz belgilar yo‘q. Bu apellyativlarga ham, turli darajadagi atoqli otlarga ham yoki faoliyatning turli bosqichlarida ideatsiya, substantivizatsiya va interpretatsiya – tegishli bo‘lib, bu nomlarning ma‘nosi foydalanuvchining bilimiga bog‘liq bo‘lib, uning tajribasi va dunyoqarashidan kelib chiqadi. [Evans., Green., 2006: 325].

Atoqli otning kognitiv ma'nosi taxmin qilinadi, bu “konseptualizatsiya” deb ataladigan aqliy tajriba tilida ramziy amalga oshiriladi va onimlarning ishlashining har bir rejasida farq qiladi. U voqelikni konseptual idrok etishni aks ettiradi va atoqli otlarning yaratilish jarayoniga ham, amal qilishiga ham ta'sir ko'rsatuvchi nolisoniy omillarga bog'liq holda o'zgaradi. Antroponimlarning ma'nolarini tushunishning asosi subyektiv konseptualizatsiya bo'lib, u atoqli otlarning morfologik tuzilishi natijasida yuzaga keladigan lingvistik bilimlarni ham, muloqot akti va ism beruvchining individual tajribasi bilan shartlangan ekstralingvistik bilimlarni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, aytish mumkinki, har safar ishlatiladigan nom yangi ma'noga ega bo'ladi. Kognitiv tilshunoslikka ko'ra, har bir til birligi inson ongida ma'lum konseptual tuzilma orqali shakllanadi. Antroponimlar ham shaxs haqidagi bilim, tajriba va madaniy qadriyatlarni mujassamlashtirgan kognitiv model sifatida qaraladi.

Masalan, o'zbek tilidagi “Nur”, “Ziyo”, “Oy” komponentli ismlar: *yorug'lik*, *poklik*, *ezgulik* kabi tushunchalar bilan bog'lanib, ijobiy kognitiv model hosil qiladi. Bu holat antroponimlarning konseptual metafora asosida shakllanishini ko'rsatadi.

Endi har nafasda yana kuyamen,

Faqat Majnun bo'lib elni suyamen. [Cho'lpon, 2013: 95]

Majnun antroponimining kognitiv asosi metaforik ma'noda ishlatiladi. Bu antroponim tarixiylik, madaniyat bilan birga ruhiy holatlarni ifodalovchi freym sifatida ham faollashadi. Majnun. Metaforik kengaygan. U sevgilisi oldida es-hushini yo'qotuvchi, ammo sof sevgi ramzidir. Majnun nomi tinglovchida avtomatik ravishda “sevgi, jinnilik, qurbonlik” assotsiatsiyasini uyg'otadi, bu esa she'rning emotsional ta'sirini kuchaytiradi. “Cho'l”, “faryod”, “qurbonlik”, “vatan” kabi assotsiatsiyalarni uyg'otadi. Bu Cho'lponning jadidchilik davridagi she'riyatida milliy uyg'onishni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

“*Majnun bo'lib elni sevamen*” misrasida Majnun prototipi vatanga o'xshatish metaforasi orqali kengayadi. O'quvchida “sevgi = jinnilik” aloqalari faollashib, vatan uchun qurbonlik (boshni dorga qo'yish) g'oyasini kuchaytiradi. Bu kognitiv ikki unsur (Majnun-Layli + vatan-sevuvchi) birlashib, yangi ma'no hosil qiladi: milliy sevgi faqat qurbonlikka boy ekanligi ta'kidlangan.

“Kuyamen” yonish, “Majnun” cho'lda yonuvchi sevuvchi, “dorg'a qo'yamen” (qurbonlik) kabi so'zlardan assotsiativ zanjir hosil qiladi. Bu o'quvchi ruhiyatida yangicha qarash yaratadi, milliy vatanparvarlikni kuchaytiradi. O'zbek she'riyatida Majnun nomi Navoiy she'riyatida sevgi muhabbat obrazi sifatida gavdalansa, Cho'lpon ijodida vatanparvarlikni ifodalashda ishlatilishi Cho'lponning klassiklikdan zamonaviylikka o'tishini ko'rsatadi. Klassik adabiyotimizda Majnun antroponimining vazifasi boshqa ma'noda bo'lsa Cho'lponda umuman boshqacha ruhda tasvirlangan. Matnlararo ko'chib yuruvchi nomlar davrlar o'tishi bilan kognitiv maydonini kengaytiradi. Antroponim o'zgarishida, u anglatayotgan tushuncha o'zgarishi mumkin.

Majnun antroponimini kognitiv metodologiya vositasida tahlil qiladigan bo‘lsak, Djusupov tadqiqotlaridagi “refreyming nazariyasida semantik og‘ish usullarini “biror tasvir yoki kechinmani yangi freymga joylashtirish” sifatida ko‘rib chiqish lozim. Ya’ni, til ifodasi tarkibidagi semantik siljish bilim tuzilmalarini ifodalovchi vositalar sifatida idrok obrazlarini o‘zgartirish orqali tavsiflanadi. Shu nuqtayi nazardan, refrreymingni amalga oshirish eski ma’noni yangi ramkaga, asl kontekstdan farqli yangi kontekstga joylashtirish orqali o‘zgartirishni anglatadi. Bu esa bizga u yoki bu ma’lumotni boshqacha talqin qilish imkonini beradi” [Djusupov, 2020: 73]. Demak antroponimlar bir ramkadan boshqa kontekstga qayta ramkalandanda u anglatayotgan ma’noga yana qo‘shimcha yangi ma’nolar ham yuklanishi antroponimlarni refrreyming usulida tahlil qilish samarali ekanligini bildiradi.

Konseptual-metaforik tahlil. Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, inson mavhum tushunchalarni aniq tajribalar orqali anglaydi. Antroponimlarda bu quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Bilim, nur (Ziyodulla, Nuriddin)

Go‘zallik, oy/gul (Oygul, Gulnoza)

Kuch, sher/arslon (Sherzod, Arslonbek)

Bu metaforalar o‘zbek madaniyatda barqaror konseptual sxema sifatida faoliyat yuritadi.

Semantik maydon modeli. Antroponimlar ongda semantik tarmoq shaklida saqlanadi:

Ism	konsept	Asosiy	atributlar	Bog‘liq
Dilshod	Quvonch		samimiyat	mehr,
Jasmin	Go‘zallik		latofat	noziklik,
Bahodir		Jasorat	mardlik	kuch,

Bu modelda ismga oid bilimlarning xalq tafakkuridagi tushunchalar yig‘indisidan tashkil topganini ko‘rsatadi.

XX asr boshlaridagi antroponimlar nafaqat nominativ birlik, balki ijodkorning ma’lum bir maqsadlarini namoyon etuvchi vosita bo‘lib, o‘zida madaniy, ijtimoiy va konseptual funksiyalarini ham ifodalab keladi.

XX asr boshlaridagi antroponimlarni xalq tafakkuridagi tushunchalar bilan bog‘liq holda konseptual guruhlanishi

1-jadval

Diniy konsept	Islomiy e’tiqod asosida shakllangan antroponimik birliklar	<i>Muhammad, Ahmad hoji so‘fi</i>
----------------------	--	-----------------------------------



Milliy konsept	Milliy an'analar bilan bog'liq jasorat, kuchni ifodalaydigan nomlar	<i>Botir, Arslon, Qodir, Bahodir</i>
Ijtimoiy konsept	Hukmronlik, boshqaruv, yuqori maqomni ifodalaydigan ismlar	<i>Sulton, Amir, Mirzo, bek xon</i>
Axloqiy konsept	Ijobiy insoniy sifatlar asosida qo'yilgan	<i>Sodiq, Karim, Rahim</i>
Tabiat konsept	Tabiat hodisalari, osmon jismlari, go'zallikni ifodalovchi ismlar	<i>Oybek, Cho'lpon, Anorgul, Ra'no, Lola</i>
Himoya konsept	Himoyalovchi ismlar	<i>Tursun, Toshmurod Yomonboy, Sotiboldi, Boltaboy, Itolmas</i>
Ma'rifat konsept	Jadidchilik harakati bilan bog'liq ismlar	<i>Munavvar, Ma'rifat, Kamol, Davron.</i>

XX asrda diniy-islomiy konsept asosida shakllangan ismlar katta guruhni tashkil qiladi va buni o'sha paytdagi aholining diniy qadriyatlarga tayangani bilan izohlash mumkin. Milliy konsept asosida shakllangan nomlarda turkiy elementlar ko'p uchraydi. Qadimdan ismlarning yetuklikka urg'u bergan turkiy xalqlarda ismlar bolaning kuchli bo'lishi tilagi bilan bog'liq holda qo'yiladi. Ijtimoiy konsept asosida shakllangan obro', mansab, yetakchilikni ifodalovchi ismlar va ism tarkibida uning mansabini, unvonini bildirib keluvchi komponentlar mavjud bo'ladi. Insondagi ijobiy xislatlarni ifodalab keluvchi axloqiy konsept asosida berilgan antroponimlarda ota-onaning farzandiga bo'lgan tilaklari ifodalanadi. Va asosan ramziy ma'no ifodalab keladi. XX asrda Turkistonda hali tibbiyot yaxshi rivojlanmagan davrda antroponimlar himoyalovchi vosita sifatida idrok etilgan. Bu davrda bolalar o'limi ko'p bo'lganligi sababli *Tursun, Toshmurod, Yomonboy, Sotiboldi* kabi nomlar berilgan. Jadidlar ta'sirida shakllangan antroponimlarda ijtimoiy tafakkurning yangilanganligini ko'rish mumkin. Badiiy matndagi antroponimlarni kognitiv-semantik tahlil qilishda antroponim matndan tashqarida emas, balki matn ichidagi semantik tugun sifatida mavjud bo'lib, asarni to'g'ri tushunish uchun asos bo'lib xizmat qiladi va ijodkorning ma'lum g'oyalarini ifodalashga yordam beradi. Antroponimlarni kognitiv tahlil qilish modeli quyidagicha amalga oshiriladi.

Antroponimlarni kognitiv-semantik tahlil
qilish modeli



Kognitiv-intervyu va assotsiativ metodi. Mazkur metod orqali respondentlardan ma'lum ismlarga oid assotsiatsiyalar yig'iladi. Natijalar: ijtimoiy stereotiplarni, madaniy kutilmalarni, emotsional bahoni aniqlashga yordam beradi.

Antroponimlar milliy madaniyatning kognitiv kodlarini saqlaydi. O'zbek ismlarida quyidagi konseptlar ustuvorlik qiladi bularga: ezgulik, poklik, ilm va ma'rifat, jasorat va mardlik, go'zallik va nafosat kabilar kiradi. Bu konseptlar xalqning tarixiy tajribasi va mentaliteti bilan chambarchas bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, antroponimlarni kognitiv yondashuv asosida tahlil qilish shaxs ismlarining faqat nominativ birlik sifatidagi vazifasi bilan cheklanib qolmasdan, balki ularning inson tafakkuri, ijtimoiy tajriba va madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab semantik-kognitiv tuzilma ekanligini ochib beradi. Ushbu yondashuv doirasida antroponimlar inson ongida shakllangan konseptual modellar sifatida talqin qilinib, ular orqali muayyan xalqning dunyoqarashi, mentaliteti, tarixiy xotirasi hamda qadriyatlar tizimi aks etishi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Kognitiv yondashuv antroponimlarning paydo bo'lishi, tanlanishi va qo'llanish jarayonida til, tafakkur va madaniyat birligi tamoyilining muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Natijada shaxs ismlari lingvistik hodisa bo'lish bilan birga, madaniy-belgili va psixologik omillar bilan bog'liq bo'lgan ko'p qatlamli birlik sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa antroponimlarni lingvomadaniy va psixolingvistik jihatdan tahlil qilish uchun mustahkam metodologik asos yaratadi. Shuningdek, kognitiv onomastika doirasidagi tadqiqotlar antroponimlarning semantik tuzilishini konsept, freym va ssenariylar orqali izohlash imkonini berib, ularning mazmuniy qatlamlarini chuqurroq ochishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, kognitiv yondashuv antroponimik tahlilning nazariy va amaliy imkoniyatlarini kengaytiruvchi samarali metodologiya bo'lib, u shaxs ismlarini til tizimining faol, dinamik va madaniy jihatdan belgilangan birlik sifatida o'rganishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. Begmatov E. *O'zbek ismlari izohi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.
2. Evans V., Melanie Green M. *Cognitive linguistics an introduction*. – Edinburgh University Press Ltd, 2006. – 850 p.



3. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 276 p.
4. Кубрякова Э.С. *Когнитивная лингвистика*. – М.: Наука, 2004.
5. Джусупов Н. *Когнитивно-стилистические основы выдвигания в англоязычном художественном тексте*. дисс... док. филол. наук. – Ташкент, 2020. – 242 б.
6. Чўлпон. Шеърлар. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 384 б.
7. Сирожиддинов, Ш. У. Х. Р. А. Т. Жизнь и творчество Алишера Навои, гуманистические идеи в его произведениях. *INFOLIB:ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала "E-LINE PRESS"*, (1), 66-71.
8. Kholmanova, Z. T., & Komilova, G. R. (2021). *The role of zoonyms in the expression of axiological content*. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1–?. <https://doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00876.4>
9. Muhammadiyeva, D. (2024). “BOBURNOMA” NING QOZOQCHA TARJIMASI BILAN BOG ‘LIQ MUAMMOLAR. *Modern Science and Research*, 3(5), 304-307.
10. Asadov, M. (2025). A Brief Review Of Vilen Komissarov’s Theory Of Equivalence. *Stanford Database Library of International Journal Of Literature And Languages*, 5(12), 86-89.
11. Rashidova N. B. Active, common words-arabisms of the sphere of education in the uzbek language //Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. – 2021. – Т. 11. – №. 11. – С. 574-579.
12. Iqbol Abdikarimovna O‘razova. [XIV asrning 2-yarmiga oid turkiy yozma manbalardagi nom bildiruvchi frazemalar](#). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*. 2022. P. 829-835
13. Shamsiyeva M. The author's linguocognitive approach to the depiction of a landscape in a literary text. *Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika*–<https://inscience.uz/index.php/foreign-linguistics>. Special Issue –4(2024) / ISSN 2181-3701
14. Muhammadiyeva, D. (2025, November). “BOBURNOMA” PARALLEL KORPUSINI YARATISHDAGI TARJIMA TAMOYILLARI. In *Conferences* (Vol. 1, No. 01). DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/KZMZ2112
15. X Zulxumor [BOBUR–SEMANTIKANING SOHIR BILIMDONI](#) - Роль наследия Захириддина Мухаммада Бабура в ..., 2023
16. K Mushtariy [The Names of Drugs In â€œKutadgu Biligâ€](#) *Drug Designing & Intellectual Properties International Journal* 2 (2), 180-181
17. В Abdushukurov, L Aralova *Turkish assimilation words in Russian language* - *Asian Journal of Multidimensional Research*, 2021